

BAHOUDDIN NAQSHBAND TARIQATI G'UYALARINING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Sitorabonu Sobirova

BuxDU talabasi.

sitorabonusobirova@gmail.com

R.Z. Rajabova

BuxDU o'qituvchisi.

rohilazakirovna@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19421940>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Bahouddin Naqshband asos solgan Naqshbandiya tariqatining asosiy g'oyalari hamda ularning oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi o'rni yoritib beriladi.

THE IMPORTANCE OF THE IDEALS OF THE BAHOUDDIN NAKSHBAND ORDER IN THE EDUCATION OF A COMPLETE GENERATION

Annotation. This article highlights the main ideas of the Naqshbandiyya order founded by Bahauddin Naqshband and their role in the spiritual and moral education of students of higher educational institutions.

Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy barkamol shaxs etib tarbiyalash oliy ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda milliy-ma'naviy merosimiz, xususan buyuk mutasavvif Bahouddin Naqshband asos solgan Naqshbandiya tariqatining g'oyalari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Naqshbandiya ta'limoti asrlar davomida insonni komillikka yetaklovchi, jamiyatda halollik, mehnatsevarlik va mas'uliyat tuyg'ullarini shakllantiruvchi ruhiy-axloqiy maktab sifatida rivojlanib kelgan. Har yili Buxoroga dunyoning turli mamlakatlaridan sayyohlar guruhi oqib kelishdan to'xtamaydi.

Qadimiy va navqiron Buxoroi sharifga kelgan kishi o'z-o'zidan ushbu go'shada qo'nim topgan yetti ulug' avliyoning qabrini ziyorat etishga vaqtini qizg'onmaydi. Manbalarda yetti piri komil Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamdan boshlangan oltin silsilaning keyingi davomchilari sifatida e'tirof etilgan.

Mavzuga oid manbalar tahlili.

Xojagon-Naqshbandiya tariqatining yirik namoyondasi, Islom olamining avliyolaridan biri hazrat Xoja Bahouddinning sifat va unvonlari juda ko'p bo'lgan. Jumladan, u zot "Shayxush-shuyux" ("shayxlarning shayxi"), "Al-Ajalul-kabir" ("buyuk daho"), "Muhyis-sunna" ("Sunnatni tiriltiruvchi") degan maqtovlarga sazovor bo'lganlar. Ul zot xalq orasida "Bahouddin", "Balogardon", "Xo'ja Buzruk" nomlari bilan tilga olinadi. "Bahouddin" so'zi dinning nuri degan ma'noni anglatadi. Ayrim manbalarda aytilishicha, u zotning ko'ngil zikri bilan uzluksiz ravishda shug'ullanishlari natijasida qalblariga Allohning ismi batamom naqshlanib qolgani uchun shu laqab berilgan.

Ushbu tariqat ulug'laridan biri bu haqida shunday degan:

Ey birodar, dar tariqi naqshband,

Zikri Haqro dar dili xud naqsh band.

Mazmuni: Ey birodar, naqshband tariqatida Haq zikrini qalbingga naqshlagin. "Tuxfatul-ansob" kitobida ul zotning nasablari haqida shunday ma'lumot berilgan: Hazrat Bahoul-haq vaddin Sayyid Muhammad ibn Sayyid Muhammad Jaloliddin Buxoriy ibn Sayyid Burhoniddin ibn

Sayyid Sha'bon ibn Sayyid Abdulloh ibn Sayyid Zaynulobidin ibn Sayyid Sha'bon ibn Sayyid Burhon ibn Sayyid Mahmud Rumiy ibn Sayyid Is'hoq ibn Sayyid Taqiy ibn Sayyid Mahmud Jom'e ibn Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib.

Binobarin, ul zotning nasablari ota tomondan Hazrati Ali roziyallohu anhuga, ona tomondan esa Hazrati Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuga borib taqaladi. Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband hazratlarining oliy maqomlari u kishining yoshlik chog'laridanoq zohir bo'la boshladi. Bahouddin Naqshband keyinchalik Muhammad Boboi Samosiy hazratlarining huzurlarida tarbiya oldilar. Manbalarda qayd etilishicha, Bahouddin Sayyid Mir Kuloldan yetti yil ta'lim olganlar. Ustoz tariqat bobida bilganlarini o'rgatib bo'lganlaridan keyin shogirdga ijozat berib: "Har qanday royi hayo (xushbo'y) dimog'ingizga yetsa, talabda zinhor taqdir qilmang!" – deb tayinlaganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Xoja Bahouddin Naqshband haqlarida ko'plab manqibalar bitilgan. Ulardan eng asosiylari Xoja Muhammad Porsoning "Risolai qudsiya" (XV asr), Saloh ibn Muborakning "Anisut-tolibin va uddatus-solikin" (XV asr), Abdurahmon Jomiyning "Nafahotul-uns", "Tuhfatul-uns", Ahmad Aqrobodiyning "Maqomoti Hazrati Shohi Naqshbandiy" (XVIII asr) kabi asarlardir. Xoja Bahouddin Naqshband, u zotning ta'limotlari hamda naqshbandiy shayxlar to'g'risida ham ko'plab asarlar yaratilgan. Birgina Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida naqshbandiylikka doir 195 ta kitob mavjud. Xoja Naqshbandiyning "Dil ba yor-u dast ba kor" degan kikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi.

Tahlil va natijalar.

Xoja Bahouddin ko'plab shayxlarning suhbatiga yetishgan bo'lsalar-da, valiylarning ruhoniylaridan fayz olib, kamolga erishganlar. Muhammad Boboi Samosiy va Amir Kulol hazratlarining ta'lim va tavsiyalarini uyg'unlashtirib, tariqatga jahonshumul asos va qoidalarni kiritganlar. Azizlarning ruhoniylaridan fayz olib yetishganlari uchun "uvaysiy" ham deyilgan. Darhaqiqat, Bahouddin Naqshband uvaysiy edilar. Alisher Navoiy "Uvaysiy" so'zini quidagicha ta'riflaydi: "... har kishiki, bu toifadin zohir yuzidin piri ma'lum bo'lmasa va mashoyixdin birining ruhi oni tarbiyat qilgan bo'lsa, oni uvaysiy derlar". Bahouddinning ma'naviy ustozlari bo'lgan Abduxoliq G'ijduvoni u unga "Barcha holatda ham qadaming amru nahiy ko'chasida bo'lsin, sunnatni hamisha joyiga qo'yishga intilgin, bid'atlardan uzoq bo'lgin, Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hadislarini o'zingga peshvo qilib olgin, u kishining ulug' sahobalari xabarlarini izlovchi va o'rganuvchi bo'lgin!" deb maslahat bergan. Ushbu voqea Bahouddinning ma'naviy hayotida katta o'zgarishlar hosil qilgan. Bahouddin Mavlono Orif Deggaroniydan hadis ilmini qunt bilan o'rganadi.

Bahouddin Naqshband ota kasbi – matoga naqsh solish bilan shug'ullangan va keyinchalik kishilar qalbini ma'nan jilolagani, ya'ni insonlarni kamolga yetish yo'liga boshlagani uchun Shoh Naqshband degan nom bilan shuhrat qozongan. Bahouddin ikki marta haj qilgan. Bahouddinning ma'naviy kamoloti Buxoroning butun Markaziy Osiyo musulmonlari uchun muqaddas ilmiy-ma'naviy markazga aylanishida muhim omil bo'ldi.

Bahouddin Naqshband o'z ta'limotini yaratishda Yusuf Hamadoni va Abduxoliq G'ijduvoni ta'limotlariga tayangan. Ular asoslagan sakkiz tamoyilga yana uchta qo'shib, o'n bitta tamoyilni amaliyotga joriy etgan. Allomaning Naqshbandiylik ta'limoti Qur'oni karim va hadisi sharif asosida shakllangan.

Hazratning “Hayotnoma”, “Dalilul oshiqin” (“Oshiqlar dalili”), “Avrod” (“Vazifalar”) kabi o’ngga yaqin asari va bir qator ruboiylari shogirdlari orqali bizgacha yetib kelgan.

Xulosa

Buxoroda Yetti pir nomi bilan atalgan allomalar Payg’ambar Muhammad alayhis salomdan boshlangan “oltin silsila”ning davomchilari sifatida e’tirof etilgan. Ular ko’ngilni badnafslilik va hirsdan poklash, halol mehnat qilib hayot kechirish, Allohga muhabbat g’oyalarini targ’ib qilgan. Ushbu aziz-avliyolarning asarlari, qilgan ishlari zamonlar osha odamlarni tarbiyalab, ularga din-u diyonat, odob-axloq, ezgu so’z va shunga yarasha go’zal amaldan saboq berib kelmoqda. Allomaning ta’limoti asosida Movarounnahrda ahroriya va dahbediya, Hindistonda mujaddidiya, Turkiyada xolidiya kabi naqshbandiylik tarmoqlari shakllangan.

Bahouddin inson ma’rifatli bo’lishi, o’zini anglash, o’rganish uchun avvalo nafsini boshqara olishi, bor kuch-quvvatini ilohiy ishq yo’lida sarflashi, butun vujudini idora etib, uni ruhiy kamolot uchun safarbar qilishi kerakligini ta’kidlaydi. Yerdan yaxshi hosil olish uchun uni barcha begona o’tlardan tozalab keyin urug’ sepilgani kabi botinni poklab, so’ng zikr urug’ini sepish kerakligini ta’kidlaydi. Shuningdek, inson ma’rifatli bo’lishda nafsga qarshi sabr fazilatini o’ziga singdirishi kerak. Bu jarayonda halol luqma va hushyorlikka alohida e’tibor berib, qo’l mehnati bilan hayot kechirishni kundalik odatga aylantirish lozim.

Bahouddin Naqshband amal qilgan “Dil ba yor-u dast ba kor” shiori yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi, jamiyatda bahamjihat yashab, o’zaro yordam berish, halol mehnat, bunyodkorlik bilan yurtni obod qilishga safarbar etadi. Naqshband va uning ta’limoti millati, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar har bir insonga va umuman butun borliqqa muhabbat bilan qarashni o’rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi. IBXITM-2022 yil.
2. I.Abdullayev, H.Hikmatullayev. Samarqandlik olimlar. Toshkent “Fan”, 1969 y.
3. S.S.Buxoriy. Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari. “Navro’z” nashriyoti. Toshkent-2015 y.
4. E.Qudratulloh. Xojagon-Naqshbandiya tariqati va uning namoyandalari”. Termiz, 2022 yil.
5. Xaitov, L. A., Kuziyev, N. A., & Rajabova, R. Z. (2024). Ecological problems and the role of ecological culture in their solution. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 120, p. 01033). EDP Sciences.
6. Rajabova, R.Z. (2020). Religious and worldly science in the xviii-xix centuries: emirate of bukhara. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*.
7. Zakirovna, R. R. BUXORO AMIRLIGIDA YOZILGAN QO’LYOZMA ASARLAR TARIXI. *SHARQ FALSAFASINING DOLZARB MASALALARI*, 264.
8. BUXORO AMIRLIGIDA XATTOTLIK SAN’ATI VA XATTOTLIK MAKTABI NAMOYANDALARI. (2025). *Modern Science and Research*, 4(5), 1287-1291.
9. Xaitov, L. (2025). HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA’LIMOTI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 5(3), 232–236. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N27>
10. Zakirovna, Rajabova R. "Uzbek Scientists Masterpieces in World Funds." *International Journal on Integrated Education*, vol. 2, no. 5, 2019, pp. 170-172, doi:[10.31149/ijie.v2i5.199](https://doi.org/10.31149/ijie.v2i5.199).